

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2026.09.01.I.04.M RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

YULDASHEVA MEXRUNISA KASIMJAN QIZI

**QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINI INNOVATSION
BOSHQARISH STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISH
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

08.00.13 –Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
economic
sciences**

Yuldasheva Mexrunisa Kasimjan qizi

Qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarish
strategiyalarini shakllantirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi
misolida).....3

Юлдашева Мехруниса Касимовна

Формирование стратегий инновационного управления
предприятиями промышленности строительных материалов (на
примере Республики Каракалпакстан)
.....27

Yuldasheva Mexrunisa Kasimjan qizi

Formation of innovative management strategies for enterprises in the
construction materials industry (in the example of the Republic of
Karakalpakstan)55

Elon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published
works61

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2026.09.01.I.04.M RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

YULDASHEVA MEXRUNISA KASIMJAN QIZI

**QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINI INNOVATSION
BOSHQARISH STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISH
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

08.00.13 –Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026 yil

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) mavzusi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt5578 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.taqu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurimbetov Ravshan Ibragimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xaydarova E'zoza Shukurullayevna
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti ilmiy daraja beruvchi

PhD.03/2026.09.01.I.04.M raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "21" iyul soat 14-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi 9A-uy. Tel.: (+99855 508-02-85, E-mail: devon@taqu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universitetining Axborot-resurs markazida

tanishish mumkin (217 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri,

Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi 9A-uy. Tel: (+99855 508-02-95, devon@taqu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "_____" _____ dagi №_____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.M. Ismailov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.D. Metyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent

N.A. Xodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar

raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarish strategiyalari (portfel boshqaruvi, texnologik modernizatsiya, raqamli ishlab chiqarish, “yashil” transformatsiya va qiymat zanjirini integratsiyalash) energiya va resurs sarfini kamaytirish orqali tannarxni pasaytirib, mahsulot sifati hamda raqobatbardoshlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, sement, beton, shisha va keramika kabi energiyasi yuqori tarmoqlarda innovatsion strategiyalar dekarbonizatsiya talablariga moslashish, eksport bozorlarida standartlarga javob berish va investitsiya jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda raqamli monitoring va optimallashtirish, qo‘shimcha sementlovchi materiallardan foydalanish, muqobil yoqilg‘ilar, energosamarali pechlar hamda uglerodni ushlash texnologiyalari korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlaydi. “Xalqaro energiya agentligi (IEA) yo‘l xaritasiga ko‘ra, sement sohasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri CO₂ chiqindilarini kamaytirish strategiyasi to‘rt tayanch orqali amalga oshiriladi: energiya samaradorligini oshirish, kam uglerodli yoqilg‘ilarga o‘tish, klinker ulushini kamaytirish va uglerodni ushlash kabi innovatsion texnologiyalarni joriy etish”¹. Shu bois qurilish materiallari sanoatida innovatsion boshqarish strategiyalarining iqtisodiy samaradorligini ilmiy asosda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Jahonda qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion boshqarish strategiyalarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar energiya -resurs intensivligi yuqori tarmoqlarda raqobatbardoshlikni saqlash, “yashil” transformatsiya talablariga moslashish va texnologik yangilanishni jadallashtirish masalalariga qaratilgan holda izchil olib borilmoqda. Dekarbonizatsiya strategiyalari, jumladan, muqobil yoqilg‘i, klinker ulushini kamaytirish, uglerod (CO₂)ni ajratish, foydalanish va saqlashning texnik-iqtisodiy asoslanmasi va investitsiya qaytimini baholash, energiya samaradorligi va chiqindilarni resursga aylantirish (aylanma iqtisodiyot) orqali tannarxni pasaytirish modellari, Industry 4.0 asosida ishlab chiqarishni raqamli optimallashtirish, innovatsiya portfelini boshqarish va R&D–investitsiya allokatatsiyasini ustuvorlashtirish metodologiyasi, mahsulot innovatsiyalari (yangi kompozitsiya materiallar, sifat standartlari, ekologik deklaratsiyalar) orqali bozor segmentatsiyasi va eksport strategiyasini uyg‘unlashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda, jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham ko‘plab rivojlanayotgan hududlar singari, qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirish masalasi ayniqsa dolzarbdir. Mintaqada qurilish materiallari sanoati uchun katta xomashyo salohiyati mavjud, ammo iqtisodiyotning tarixan shakllangan tuzilmasi, geografik joylashuv va innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi

¹ <https://iea.blob.core.windows.net/assets/cbaa3da1-fd61-4c2a-8719-31538f59b54f/TechnologyRoadmapLowCarbonTransitionintheCementIndustry.pdf>

ushbu salohiyatni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Ishlab chiqarish asosiy fondlarining eskirganligi, energiya samaradorligining pastligi, mahsulotlar assortimentining cheklanganligi va sifati ba'zan mahalliy ishlab chiqaruvchilarga import analoglari bilan raqobatlashish imkonini bermaydi. Shu bois, sohada innovatsion boshqaruv strategiyalarini shakllantirish asosida mahalliy xomashyolardan yangi turdagi yuqori sifatli, raqobatbardosh va energiya tejamkor materiallarni yaratish uchun qurilish materiallari sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 31-avgustdagi PF-213-son "Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur'atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonlari, 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4198-son "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-son "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi 841-son "2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 21-fevraldagi 83-son "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Strategik boshqaruvning nazariy-uslubiy asoslari, korxonalarning innovatsion salohiyatini oshirish va raqobat strategiyalarini shakllantirish muammolari P.F.Druker, R.Kaplan, T.Kouplend, T.Koller, Dj.Murrin, Y.Shumpeter kabi xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan². Ularning ishlarida innovatsiyalarning iqtisodiy

²Ансофф И. Новая корпоративная стратегия (The New Corporate Strategy). – Питер, 1999. – 416 с. – ISBN 5-314-00105-2, 0-471-62950-2, Drucker, P. F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. Harper & Row Press. 1985 y.; Каплан Р., Нортон Д. Организация, ориентированная на стратегию. Как в новой бизнес-среде преуспевают организации, применяющие

o'sishdagi roli va korporativ strategiyalarning evolyutsiyasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

MDH mamlakatlarida sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va innovatsion boshqaruv modellarni tatbiq etish masalalari V.M.Arhipov, I.Ansoff, E.V.Joglina, G.B.Kleyner, V.V.Kovalev, B.A.Rayzberg, I.V.Bryanseva, B.V.Prikin, R.A.Fatxutdinov, S.Y.Glazyev, T.V.Kolosova va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan³. Ushbu tadqiqotlarda o'tish iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning innovatsion faolligini oshirish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda iqtisodiyotni shu jumladan, qurilish materiallari sanoatini innovatsion boshqarish tizimining nazariy va uslubiy asoslari, ularni hududiy iqtisodiyot subyektlari hamda tarmoqlariga joriy etish muammolari B.B. Baxtiyorov, Z.N.Zaynutdinov, R.I.Nurimbetov, A.M.Kadirov, N.G.Muminov, R.X.Abdusattorov, A.A.Ambartsumyan, D.M.Karimov, Sh.N.Otamurodov, M.N.Farmonova, B.O.Dusmatov, O.S. Muxtorov, B.Dedajonov, M.Murodaliyev, Qalmuratov B.S., I.P.Najimov va boshqalar tomonidan keng o'rganilgan⁴.

сбалансированную систему показателей: пер.с англ. – М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2005. – 416 с.; Коупленд Т., Коллер Т., Муррин Дж. Стоимость компаний: оценка и управление.пер.с англ. – М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2008 – с. 576 – ISBN 978-5-9693-0119-1, Schumpeter, J. A.. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. Harvard University Press. 1934 y.

³Архипов В.М. Проектирование производственного потенциала объединений (теоретические аспекты) – Л.: Изд. ЛГУ, 2009. – С.75-89.; Жоглина Е.В. Согласование механизмов управления развитием экономического потенциала: автореф. дис... канд. экон. наук: 08.00.05 / Жоглина Е.В. – Ставрополь, 2008. – 26 с.; Клейнер Г.Б., Тамбовцев В.Л., Качалов Р.М. Предприятия в нестабильнойэкономической среде: риски, стратегии, безопасность. – М.: Экономика,1997. – 288 с.; Ковалев, В.В. Финансы организаций (предприятий): учебник / М.:Проспект, 2010.– 352 с.; Райзберг Б.А. Государственное управление экономическими и социальными процессами. – М.: ИНФРА-М, 2008. – 384 с.; Брянцева И. В. Экономическая устойчивость предприятия: сущность, оценка, управление. Хабаровск: Изд-во Хабар, гос. ун-та, 2003. – 230 с.; Прыкин Б. В. и др. Основы управления. Производственно-строительные системы: Учеб. для вузов. М.: Стройиздат, 1991. – 336 с.; Колосова Т.В. Обеспечение устойчивого развития предприятия на основе повышения его инновационного потенциала: автореф. дис. ... д-ра экон. наук: 08.00.05. – Нижний Новгород, 2011. – 44с.

⁴ Baxtiyorov B.B. O'zbekiston sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi amaliyotining o'ziga xos xususiyatlari va mavjud muammolari//Iqtisod va moliya jurnali 2022, 5-son, 11-20-betlar.; Baxtiyorov B.B. Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvini rivojlantirishda ilg'or xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 2022,1-son yanvar fevral, 109-120-betlar.; Zaynutdinov Z.N. Innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali 2011, sentabr, 1-son, 1-5-betlar; Nurimbetov R.I., Djumaniyazov U.I. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda innovatsion boshqaruvning o'rne va ahamiyati// Iqtisodiyot va ta'lim, 2018, 4 son; Kadirov A.M. Sanoat korxonalarining innovatsion strategiyalari asosida barqarorligini oshirish//Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali 2025, 5-son, 15-23-betlar.; Muminov N.G. Abdusattorov R.X. Ambartsumyan A.A. Karimov D.M. Peculiarities of Manufacturing Policy in Uzbekistan in the Conditions of Modernization of the Economy//Webology 2022, Yanvar, 2945-2963-betlar; Otamurodov Sh.N. Farmonova M.N. Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishi muammolari// Iqtisodiyot va ta'lim 2023, 3-son, 106-112-betlar; Dusmatov B.O. Muxtorova O.S. Sanoat korxonalari korxonalari innovatsion faoliyatining asosiy xususiyatlari//Journal of marketing, business and management dekabr 29-32-betlar; Dedajanov B. Murodaliyeva M. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish// Ekonomika i sotsium" 2024, 105-111-betlar; Qalmuratov B.S. Joldasbaeva U.J. Innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining xususiyatlari//“Innovations in Science and Technologies” ilmiy-elektron jurnali 2025, 3-son, 527-534-betlar; Нажимов И.П. Қурилиш материаллари ишлаб чиқариш корхоналарининг

Shunga qaramay, global iqtisodiyotda raqobatning kuchayishi, raqamli transformatsiya jarayonlari va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarining jadallashishi sharoitida qurilish materiallari sanoati korxonalarini boshqarishda yangi strategik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘ziga xos tabiiy-iqlim sharoiti, resurs bazasi va logistik imkoniyatlarini hisobga olgan holda, tarmoq korxonalari uchun innovatsion boshqaruv strategiyalarini shakllantirish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Ilmiy ishlarning ko‘pligiga qaramay, mintaqaviy sanoat korxonalarida innovatsion madaniyatni shakllantirish, sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini boshqaruv modeliga integratsiya qilish va inson kapitalidan samarali foydalanishning uslubiy jihatlari qo‘shimcha izlanishlarni talab qiladi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish va mintaqaviy ekologik muvozanatni saqlash sharoitida ushbu muammoni hal qilish nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo‘nalishda izlanishlarga bo‘lgan ehtiyoj dissertatsiyaning maqsadi va vazifalarini tanlashni oldindan belgilab berdi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Qoraqalpog‘ davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion boshqarish strategiyalarini shakllantirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoat korxonalarini innovatsion boshqarishning mazmun-mohiyati va uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

qurilish materiallari sanoatini innovatsion boshqarishga ta’sir etuvchi omillar ta’sirini o‘rganish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion rivojlanish tendensiyalari o‘rganish;

mintaqada qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarish samaradorligini baholash;

qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarish strategiyasining asosiy yo‘nalishlarini tadqiq etish;

qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarish strategiyalarini shakllantirishda uslubiy yondashuvlar bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi qurilish materiallari sanoati korxonalari iqtisodiy faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini mintaqada qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirish, boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy, tashkiliy hamda boshqaruv munosabatlari yig‘indisi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun tizimli yondashuv, qiyosiy va statistik tahlil, iqtisodiy-matematik modellash, SWOT tahlil, grafik va jadval usullari hamda abstrakt-mantiqiy usullar majmuasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni mahalliy xomashyo resurslaridan foydalanish va Orolbo'yi mintaqasining o'ziga xos agressiv iqlim sharoitiga moslashuvchanlikni ta'minlovchi "adaptiv boshqaruv" hamda xorijiy ilg'or texnologiyalarni transferatsiya qilishda "texnologik va institutsional filtrlash" kabi yangi tamoyillar hisobiga kengaytirish orqali takomillashtirilgan;

hududiy logistika-savdo infratuzilmasi hamda qurilish materiallari ishlab chiqarishni integratsiyalash asosidagi "Amudaryo-Beruniy qurilish materiallari klasteri"ni tashkil etish orqali hududiy konsentratsiyalashuvni yumshatish va eksport-ishlab chiqarishni nomarkazlashtirish strategiyasini takomillashtirish taklif etilgan;

qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarishning "yashil" modeliga o'tish asosida mahsulot tannarxi tarkibida energiya ulushi (15-20%), tabiiy xomashyo sarfi (25%), atmosferaga chiqariladigan zaharli gazlarni (30%) kamaytirishning miqdoriy chegaralari asoslangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish materiallari sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ko'p variantli ekonometrik modellar asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos xususiyatlari (resurs bazasi, logistik imkoniyatlar va ekologik cheklovlar)dan kelib chiqib, ularning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi mualliflik modeli ishlab chiqilgan;

mintaqaviy sanoat korxonalarining innovatsion faollik darajasini baholash asosida, texnologik raqobatbardoshlikning yuqori darajasini ta'minlovchi innovatsion xarajatlar va mahsulot hajmi o'rtasidagi eng maqbul chegaralar aniqlangan;

mintaqadagi qurilish materiallari sanoati korxonalarini gorizont va vertikal tahlil asosida baholash orqali ularning texnologik mustaqilligini oshirish yo'nalishlari belgilangan;

qurilish materiallari sanoati korxonalarini boshqarishda innovatsion jarayonlarni raqamlashtirish, import o'rnini bosish va "yashil" texnologiyalarni tatbiq etish bilan bog'liq muammolarning yechimlari bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasidan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarning vakolatli

tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qurilish materiallari sanoati korxonalarini boshqarishda innovatsion jarayonlarni faollashtirish bo'yicha nazariy-uslubiy, meyoriy-huquqiy asoslari va mintaqaviy sanoat tarmoqlarini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan samarali rivojlantirishda hamda ushbu soha bo'yicha kelajakdagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda poydevor sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarishni takomillashtirish, shuningdek, tarmoqning eksport salohiyati va raqobatbardoshligini yanada oshirish, uni tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning innovatsion va ilmiy-metodologik yondashuvlari bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimlari hamda sanoat korxonalarini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli va strategik yo'nalishlarni ishlab chiqishda muayyan darajada xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi qurilish materiallari sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmunini mahalliy xom ashyo resurslaridan foydalanish va Orolbo'yi mintaqasining o'ziga xos agressiv iqlim sharoitiga moslashuvchanlikni ta'minlovchi "adaptiv boshqaruv" hamda xorijiy ilg'or texnologiyalarni transferatsiya qilishda "texnologik va institutsional filtrlash" kabi yangi tamoyillar hisobiga kengaytirish orqali takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy ishlanmalar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Qurilish materiallari korxonalarining iqtisodiyoti" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-son buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda yangi tamoyillar hisobiga kengaytirish orqali takomillashtirilgan "qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarish" tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

hududiy logistika-savdo infratuzilmasi hamda qurilish materiallari ishlab chiqarishni integratsiyalash asosidagi "Amudaryo-Beruniy qurilish materiallari klasteri"ni tashkil etish orqali hududiy konsentratsiyalashuvni yumshatish va eksport-ishlab chiqarishni nomarkazlashtirish strategiyasini takomillashtirish taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan hududiy sanoatni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2026-yil 5-maydagi №04-07/01-1601 son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi mahalliy xom ashyo hisobiga import bog'liqligini kamaytirish, eksport geografiyasini diversifikatsiyalash orqali hududiy konsentratsiyalashuv risklarini

pasaytirish hamda ichki bozorni innovatsion qurilish materiallari bilan ta'minlash strategiyasi samaradorligini oshirish imkonini bergan;

qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarishning "yashil" modeliga o'tish asosida mahsulot tannarxi tarkibida energiya ulushi (15-20%), tabiiy xomashyo sarfi (25%), atmosferaga chiqariladigan zaharli gazlarni (30%) kamaytirishning miqdoriy chegaralari bilan bog'liq taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan soha korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish dasturlariga kiritilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2026-yil 5-maydagi № 04-07/01-1601 son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish materiallari sanoati korxonalarini boshqarish tizimida "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash orqali tabiiy resurslar sarfini optimallashtirish, raqamli texnologiyalar yordamida boshqaruv jarayonidagi transaksion xarajatlarni 30-40 foizgacha qisqartirish hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi va atrof-muhitga ta'siri o'rtasidagi strategik muvozanatni ta'minlash imkoni yaratilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish materiallari sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarining 2030-yilga qadar ko'p variantli ekonometrik modellar asosida ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan qurilish materiallari sanoati mahsulotlarining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2026-yil 5-maydagi №04-07/01-1601 son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida prognoz qiymatlari qurilish materiallari ishlab chiqarishning istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarining aniqlik darajasini oshirishga va rivojlanish strategiyasini takomillashtirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyadan o'tkazilganligi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola (shundan 6 tasi mahalliy va 1 tasi xorijiy jurnallarda), xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjuman to'plamlarida 7 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning umumiy hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti shuningdek, mavzuning mamlakatimiz fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi tavsiflangan, bundan tashqari, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, ilmiy

tadqiqot natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarini innovatsion boshqarish strategiyasini shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sanoat korxonalarini innovatsion boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari, qurilish materiallari sanoatini innovatsion boshqarishga ta'sir etuvchi omillar shuningdek, qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarishning ilg'or xorijiy tajribalari va ularni qo'llash istiqbollari yoritib berilgan.

Globalashuv va shiddat bilan rivojlanayotgan texnologik taraqqiyot shuningdek, tobora kuchayib borayotgan raqobat sharoitida korxonalarning innovatsiyalarni uzluksiz joriy etish qobiliyati - nafaqat raqobatbardosh ustunlik imkoniyati, balki “yashab qolish” va barqaror rivojlanishning zaruriy shartiga aylanmoqda. Zamonaviy iqtisodiy tizimda sanoat korxonalarining rivojlanish dinamikasi boshqaruv paradigmasining tubdan o'zgarishini taqozo etmoqda. Agar klassik maktablarda menejment jarayonlarning barqarorligi va standartlashtirilishiga yo'naltirilgan bo'lsa, bugungi o'zgaruvchan bozor konyunkturasi korxonalardan ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashuvchan, kelajakka yo'naltirilgan strategik yondashuvni talab qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, an'anaviy menejment va innovatsion boshqaruv o'rtasidagi konseptual farqlarni tizimli tahlil qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Quyidagi jadvalda mazkur ikki yondashuvning eng muhim farqli jihatlari qiyosiy tasniflangan (1-jadval).

1-jadval

Innovatsion boshqaruvning an'anaviy menejmentdan farqli jihatlari⁵


Taqqoslash mezonlari	An'anaviy menejment	Innovatsion boshqaruv
Asosiy maqsad	Jarayonlar barqarorligi va reja ijrosi	O'zgarishlar yaratish va yangi bozorlarni egallash
Qaror qabul qilish	O'tmishdagi tajribaga tayanish	Kelajakdagi prognoz va imkoniyatlarga tayanish
Tavakkalchilik	Riskni minimallashtirish	Riskni boshqarish va undan foydalanish
Xodimlar roli	Ko'rsatmalarni bajaruvchilar	Innovatsiya va g'oyalar generatorlari
Tashkiliy tuzilma	Qat'iy iyerarxik (byurokratik)	Moslashuvchan (gorizontal) va loyihaviy

Dissertatsiyada qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi ekzogen va endogen omillar tizimli tahlil qilindi. Bunda makroiqtisodiy muhit kengaytirilgan tarzda baholangan bo'lsa, korxonaning ichki muhitida innovatsiyalarni generatsiya qilish va tijoratlashtirishni belgilovchi adaptiv salohiyat hamda boshqaruv kompetensiyasi determinant sifatida asoslab berildi.

Tahlil qilingan tashqi muhit determinantlari va ichki resurs

⁵ Muallif ishlanmasi.

imkoniyatlarining o'zaro ta'siri asosida qurilish materiallari sanoati korxonalari uchun innovatsion boshqaruvning konseptual modelini quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion boshqaruv tizimiga ta'sir etuvchi omillar va natijaviy ko'rsatkichlar blok-sxemasi⁶.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish nafaqat umumiy iqtisodiy qonuniyatlarga, balki mintaqaning ekskluziv omillari – xomashyo bazasi tarkibi, suv resurslari tanqisligi va degradatsiyaga uchragan ekologik muhitga moslashishni taqozo etadi. Bu borada innovatsion yechimlarning mahalliy muammolar bilan mutanosibligini ta'minlash mintaqaviy innovatsion tizim samaradorligining asosiy shartidir.

Muallif yondashuviga ko'ra, mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari va ularga mos innovatsion trayektoriyalar quyidagi to'rtta ustuvor yo'nalish orqali asoslab beriladi:

- *xomashyo bazasi bo'yicha.* Mintaqada mahalliy tabiiy va mineral resurslarning mavjudligidan kelib chiqib, ularni chuqur qayta ishlashning yuqori texnologik usullarini ishlab chiqarishga joriy etish;

- *iqlim sharoiti bo'yicha.* Orolbo'yiga xos tuproq-suv sho'rlanishi va tuzli bo'ronlarning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun agressiv tashqi muhitga (korroziya va harorat o'zgarishiga) yuqori chidamli yangi avlod qurilish materiallarini yaratish;

- *resurs tejamkorligi bo'yicha.* Mintaqadagi suv va energiya tanqisligi muammosini hal etish maqsadida ishlab chiqarishda energiya sarfini optimallashtiruvchi hamda suv iste'molini minimallashtiruvchi resurstejamkor texnologiyalarni tatbiq qilish;

- *ilmiy hamkorlik bo'yicha.* Mahalliy OTMLar va ilmiy markazlarning intellektual salohiyatini birlashtirish orqali "ilm-fan va ishlab chiqarish" kooperatsiyasini kuchaytirish va innovatsiyalarni birgalikda ishlab chiqish.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuvga ko'ra, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, regionning agressiv iqlimiga bardoshli materiallar ishlab chiqarish hamda energiya va suv tejamkor texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish sanoat korxonalarining bosh

⁶ Muallif ishlanmasi.

strategik yo'nalishlaridir. Mazkur yechimlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda mahalliy ilmiy markazlar va OTMLar bilan innovatsion hamkorlikni institutsional darajada kuchaytirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyotida qurilish materiallari sanoatini innovatsion rivojlantirish turli iqtisodiy va texnologik strategik modellarga tayanadi. Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion boshqaruv tizimining samaradorligi ko'p jihatdan mamlakatning texnologik poydevori, milliy iqtisodiy ustuvorliklari va bozor ehtiyojlarining o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Xususan, yetakchi davlatlar tajribasini qiyosiy o'rganish mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun eng maqbul innovatsion trayektoriyalarni tanlash va tarmoqdagi texnologik bo'shliqlarni bartaraf etish imkonini beradi. Rivojlangan davlatlarda tarmoqni modernizatsiya qilish quyidagi ustuvor yo'nalishlar va instrumentlar orqali amalga oshirilmoqda:


- *Germaniya modeli.* Boshqaruv tizimi «yashil» iqtisodiyot va energiya samaradorligi tamoyillariga asoslangan bo'lib, asosiy instrumentlar sifatida Eurocodes ekologik standartlari va qayta ishlanuvchi xom ashyodan foydalanish (sirkulyar iqtisodiyot) tizimi qo'llaniladi;

- *Xitoy modeli.* Masshtab iqtisodiyoti va raqamlashtirish ustuvor yo'nalish hisoblanib, boshqaruv jarayoni avtomatlashtirilgan zavodlar va 3D qurilish texnologiyalari kabi raqamli instrumentlar transferi orqali tashkil etilgan;

- *Yaponiya modeli.* Seysmik xavfsizlik va "aqlli" materiallar yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, innovatsion boshqaruv tizimi nanotexnologiyalar hamda iqlimga moslashuvchan materiallarni ishlab chiqarish instrumentlari bilan tavsiflanadi;

- *AQSH modeli.* Bozor konyunkturasi va ITTKI natijalarini tijoratlashtirishga tayanadi hamda sohani innovatsion rivojlantirishda texnologik startaplarni qo'llab-quvvatlash va venchur moliyalashtirish instrumentlari ustuvor ahamiyatga ega.

Muallifning fikricha, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini mahalliy sharoitga moslashtirish jarayonining "adaptatsiya filtr"i – texnologik, ekologik va iqtisodiy jihatlarni qamrab oluvchi quyidagicha yaxlit mexanizmni tashkil etishi maqsadga muvofiq (2-rasm).



2-rasm. Xorijiy innovatsion tajribani transferatsiya qilish mexanizmi⁷.

Yuqoridagi mexanizmida ko'rsatilgan adaptatsiya jarayoni xorijiy ilg'or texnologiyalarni transferatsiya qilishda korxonalarining innovatsion boshqaruv tizimiga uch bosqichli filtrlashni taklif etadi. Ushbu mexanizmning birinchi elementi bo'lgan texnologik filtr energiya tejamliligi, xomashyo universalligi va Orolbo'yi mintaqasining agressiv iqlimiga chidamlilik indikatorlari asosida mintaqaviy muhitga mos kelmaydigan hamda texnologik jihatdan samarasiz yechimlarni cheklashga xizmat qiladi.

Nihoyat, zamonaviy "yashil" iqtisodiyot talablariga rioya qilish va ekologik risklarni boshqarish maqsadida ekologik filtr joriy etilib, u chiqindisiz ishlab chiqarish, karbonat angidrid chiqindilari emissiyasining pastligi va suv tejovchi tizimlarning mavjudligi kabi indikatorlar orqali texnologiyaning ekologik xavfsizligini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning **"Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion rivojlanishining zamonaviy holati tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion rivojlanish tendensiyalari tadqiq etilgan, shuningdek, mintaqada qurilish materiallari sanoati korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili hamda mintaqqa tarmoq korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarish samaradorligini baholash amalga oshirilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy sanoat tuzilmasi tarkibida qurilish materiallari sanoatining nisbiy ahamiyatini baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, tahlil qilinayotgan 2020–2024 yillar oralig'ida tarmoqning iqtisodiy salohiyati va ishlab chiqarish samaradorligida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Ya'ni, Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoat mahsulotlari umumiy hajmida qurilish materiallari sanoatining ulushi 2020-yildagi 4,27 foizdan 2024 yilga kelib 6,28 foizga yetgan. Tarmoq ulushining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 10,89 foizni tashkil etib, bu qurilish materiallari ishlab chiqarishning hudud umumiy sanoatiga nisbatan jadalroq sur'atlarda rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, tarmoqda ro'y bergan eng muhim sifat o'zgarishi – bir korxonaga to'g'ri keladigan o'rtacha mahsulot hajmining keskin oshganligidir. Ushbu ko'rsatkich 2020-yildagi 1 247,49 mln. so'm/donadan 2024 yilda 2 508,56 mln. so'm/donaga yetib, yillik o'rtacha o'sish sur'ati 18,99 foizni tashkil qilgan.

Shuningdek, tadqiqotda 2020–2024 yillar oralig'ida tarmoqda ishlab chiqarish, eksport va import jarayonlari o'rtasida chuqur tizimli nomutonasiblik mavjudligi aniqlandi. Unga ko'ra, ishlab chiqarish hajmi davlat dasturlari va ichki talab hisobiga 599,86 mlrd. so'mdan 1 439,81 mlrd. so'mgacha (yillik o'rtacha o'sish 24,53%) shiddat bilan ortgan. Biroq, ushbu ijobiy o'sish fonida tarmoq eksporti 6 099,00 ming AQSH dollardan 4

⁷ S.O.Ibragimov "Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiyoti", O'quv qo'llanma, Toshkent 2026.

563,43 ming AQSH dollargacha pasayib, manfiy dinamikani (– 7,11%) namoyish etgan.

Eksportning kamayishi va import hajmining 35 219,87 ming AQSH dollardan 50 172,13 ming dollargacha (yillik oʻrtacha oʻsish 9,35%) barqaror oshishi tashqi savdo balansi defitsitini yanada chuqurlashtirgan. Natijada savdo balansi saldosi –29 120,87 ming AQSH dollardan – 45 608,70 ming AQSH dollarigacha yomonlashib, defitsitning yillik oʻrtacha oʻsish surʼati 11,23% ni tashkil etgan. Bunday makroiqtisodiy konfiguratsiya ichki ishlab chiqarishning oʻsishi tarmoqning importga qaramligini hali toʻliq kamaytira olmayotganini koʻrsatadi va tarmoqni innovatsion klasterlashtirish asosida tarkibiy qayta qurishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, qurilish materiallari sanoatining texnologik va xomashyo importiga qaramlik darajasini aniqlash hamda innovatsion boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda import oʻrnini bosishning ustuvor yoʻnalishlarini belgilash maqsadida quyidagi tahlil amalga oshirildi. (2-jadval)

2-jadval

Qurilish materiallari sanoati importining kritik mahsulot guruhlari dinamikasi⁸ (ming AQSH doll.)

Mahsulot Guruhi (Kritik import vektori)	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	Yillik oʻrtacha oʻsish surʼati (%)	Jami import tarkibi dagi ulushi (2024y, %)
Yogʻoch va yogʻoch mahsulotlari (xom-ashyoviy qaramlik)	17002,3	16408,0	24206,1	25123,0	26380,0	11,51%	52,58%
Gips, sement asosli birikmalar (maxsus quruq aralashmalar)	1223,1	1179,6	2581,0	3383,0	3332,9	28,52%	6,64%
Metall konstruksiyalar va butlovchi qismlar (texnologik qaramlik)	638,1	1308,2	1283,4	1007,2	1271,7	18,73%	2,53%

Jadvaldan koʻrish mumkinki, yogʻoch va yogʻoch mahsulotlari import hajmining yarmidan koʻpini (birgina 2024 yilda 52,58%) tashkil etadi va oʻsishda davom etmoqda (11,51%). Bu, qurilish materiallari sanoatining asosiy tarkibiy elementlarga boʻlgan xom-ashyoviy qaramligining fundamental muammosini koʻrsatadi. Bundan koʻrinadiki, innovatsion

⁸ Qoraqalpogʻiston Respublikasi statistika boshqarmasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

boshqaruv strategiyasi zamonaviy muqobil variantlarni (masalan, kompozit panellar, yengil po'lat konstruksiyalar yoki mahalliyashtirilgan sintetik materiallar) ishlab chiqarish va joriy etishga qaratilishi kerak. Bu tannarxdagi moddiy xarajatlar ulushini kamaytirish imkonini beradi.

Mazkur tahlil texnologik uskunalar, xom ashyo va butlovchi qismlar bo'yicha importga qaramlikning asosiy manbalarini aniqlash, ularning ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sirini baholash hamda ushbu qaramlikni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tahlil natijalari innovatsion boshqaruv strategiyalarini shakllantirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash uchun ilmiy-amaliy asos vazifasini bajaradi. Tadqiqotning empirik asoslarini shakllantirish va mintaqaviy sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holatini tizimli baholash maqsadida, Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish materiallari tarmog'ining ikki xil faoliyat modelini ifodalovchi korxonalar tanlab olindi. Ushbu tahlil turli masshtabdagi korxonalarning innovatsion yo'nalishlari, xomashyo ta'minoti va bozordagi o'rnini baholashga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval

**“KARAKALPAK CEMENT” MCHJ va “MUYNAK LDSP” MCHJ
korxonalarning faoliyat ko'rsatkichlari qiyosiy tahlili⁹
(2024-yil holatiga)**

Qiyoslash mezonlari	“KARAKALPAK CEMENT” MCHJ	“MUYNAK LDSP” MCHJ
Investitsion sig'im	Juda yuqori (Kapital talab qiluvchi)	O'rta (Texnologik moslashuvchan)
Xomashyo manbai	Mahalliy konlar (ohaktosh, gips, tuproq)	Mahalliy qamish
Energiya sig'imi	Yuqori (issiqlik va elektr energiyasi)	O'rta (asosan elektr energiyasi)
Innovatsion yo'nalishi	Jarayon innovatsiyasi (pechlar samaradorligi)	Mahsulot innovatsiyasi (dizayn, dekor, sifat)
Rentabellik darajasi	Barqaror (15-20%)	Yuqori va o'zgaruvchan (25-35%)
Bozor segmenti	B2B (Davlat va yirik qurilish loyihalari)	B2C va B2B (Aholi, mebel sanoati)
Moslashuvchanlik darajasi	Past (texnologik zanjir qat'iy)	Yuqori (bozor talabiga tez moslashadi)

Yuqoridagi jadval tahlili tarmoqda ikki xil model mavjudligini ko'rsatadi. Birinchi model (“KARAKALPAK CEMENT”) yuqori kapital va energiya sig'imi,

⁹ Muallif ishlanmasi.

past moslashuvchanlik hamda an'anaviy mineral xomashyoga tayanib, jarayon innovatsiyalari hisobiga barqaror rentabellik (15-20%) bilan yirik B2V segmentiga xizmat qiladi. Ikkinchi model ("MUYNALP LDSP") esa o'rtacha resurs sarfi, mahalliy noan'anaviy xomashyo (qamish) bazasi va yuqori texnologik moslashuvchanlik bilan ajralib turib, mahsulot innovatsiyasi orqali yuqori rentabellikka (25-35%) erishadi hamda B2S va B2V bozorlarini qamrab oladi. Ushbu qiyosiy tahlil Orolbo'yi mintaqasida yirik subyektlar uchun jarayonlar samaradorligini oshirish, kichik va o'rta quvvatli korxonalarda esa mahsulot turini diversifikatsiyalash strategiyasini qo'llash zarurligini empirik jihatdan asoslaydi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida korxonaning moliyaviy mustaqilligi va investitsiyaviy jozibadorligini baholash maqsadida, moliyaviy faoliyat xarajatlarining yalpi foyda miqdoriga nisbatan proporsional bog'liqligi tizimli ravishda tahlil qilindi. Ushbu ko'rsatkich korxona tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymatning qancha qismi tashqi qarzlarga xizmat ko'rsatish (kredit foizlari va boshqa moliyaviy majburiyatlar) uchun yo'naltirilayotganini ifodalovchi muhim indikator hisoblanadi (4-jadval).

4-jadval.

MCHJ "KARAKALPAK CEMENT" korxonasida moliyaviy yuklama va devalvatsiya ta'siri koeffitsiyenti¹⁰

Ko'rsatkich	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Yalpi foyda (ming so'm)	40 753 255,0	77 222 128,0	107 804 057,0
Moliyaviy xarajatlarning yalpi foydadagi ulushi	300,3%	149,0%	152,3%
Valyuta kursi farqi zararining ulushi	240,2%	80,3%	88,6%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korxona yaratayotgan yalpi foyda (107,8 mlrd so'm) uning faqatgina moliyaviy majburiyatlarini (164,1 mlrd so'm) qoplashga ham yetmayapti. Bu esa korxonaning ishlab chiqarish samaradorligi yuqori bo'lsa-da, uning kapital tuzilmasi noto'g'ri shakllanganidan dalolat beradi. Birgina 2024-yilda valyuta kursi farqidan ko'rilgan 95,4 mlrd so'mlik zarar korxonaning tashqi qarzlarni qayta baholash natijasidir. Bu mintaqaviy sanoat subyektlari uchun valyuta risklarini xedjirlash (inglizcha *hedge* – to'siq, himoya, sug'urta) mexanizmlari mutlaqo mavjud emasligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot obyekti sifatida tanlangan korxonalarning innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini cheklab qo'yuvchi omillarni aniqlash maqsadida, ularning moliyaviy barqarorligi va kapital tarkibi bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazildi. Ayniqsa, yirik investitsion loyihalarda moliyaviy xarajatlarning bo'g'uvchi ta'sirini o'rganish, mintaqaviy sanoat korxonalari uchun optimal kapital tuzilmasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda ikki xil ishlab chiqarish modeliga ega bo'lgan

¹⁰ MCHJ "KARAKALPAK CEMENT" korxonasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

subyektlarning qiyosiy ko'rsatkichlari aks ettirilgan (5-jadval)

5-jadval.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligi va kapital tuzilmasi bo'yicha qiyosiy tahlili¹¹

Ko'rsatkich nomi	"KARAKALPAK SEMENT" MCHJ	"MUYNALDIP" MCHJ	Farq (Sabab)
Moliyaviy xarajatlari	164,1 mlrd so'm	1,6 mlrd so'm	"MUYNALDIP" MCHJ da qarz yukining pastligi
Valyuta xavfi	Juda yuqori (xorijiy kredit)	Juda past (mahalliy mablag')	Devalvatsiya ta'sirining yo'qligi
Sof foyda holati	Zarar	Foyda	Moliyaviy yuklamaning "bo'g'uvchi" ta'siri

"MUYNALDIP" MCHJ misolida biz moliyaviy yuklamaning pastligi (foiz xarajatlari atigi 1,6 mlrd so'm) hisobiga korxonaning sof foydaga chiqishini ko'ramiz. Demak, mintaqada kichik va o'rta sanoat subyektlari yirik gigantlarga qaraganda moliyaviy moslashuvchanroq ekanligini ko'rish mumkin.

Tadqiqot ishining **"Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarish strategiyalari samaradorligini oshirish"** deb nomlangan uchinchi bobida qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarish strategiyasining asosiy yo'nalishlari, qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion boshqarish strategiyalarini shakllantirishda uslubiy yondashuvlar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirishning istiqboldagi prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan. Bugungi kunda mintaqada qurilish materiallari ishlab chiqarish quvvatlarining asosan markaziy hududlarda konsentratsiyalashuvi mahsulot yetkazib berish zanjirining uzayishiga, transport va logistika xarajatlarning ortishiga hamda chekka hududlarda ishlab chiqarish-resurs salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmasligiga olib kelmoqda.

6-jadval

Qurilish materiallari sanoatini klasterli tashkil etish orqali hududiy nomarkazlashtirish va logistika xarajatlari optimallashtirishning qiyosiy tahlili¹²

Yo'nalish	Mavjud holat	Taklif etilayotgan klaster natijasi
Logistika xarajatlari	Tovar aylanishi 70–120 km masofaga bog'liq	Masofa 20–35 km gacha qisqaradi, xarajat 25–30% kamayadi
Hududiy konsentratsiya	Ishlab chiqarish asosan Nukus shahri va markaziy tumanlarda jamlangan	Amudaryo–Beruniy o'qi bo'ylab 5–6 yangi ishlab chiqarish nuqtasi tashkil etiladi
Xomashyo ta'minoti	Sement, inert materiallar alohida tashiladi	Yagona logistika markazi orqali integratsiyalashgan ta'minot
Eksport salohiyati	Takror tashishlar yuqori	Bevosita Qozog'iston va Turkmanistonga chiquvchi


¹¹ Muallif ishlanmasi.

¹² Muallif ishlanmasi.

		eksport uzeli
Korxonalar hamkorligi	Tarqoq, kooperatsiya past	Yagona klasterda laboratoriya, logistika, marketing birlashadi
Texnologik yangilanish	Korxonalar infratuzilmasi turlicha	Klaster markazida innovatsion texnopark tashkil etiladi

Natijada, mahalliy korxonalarning ichki bozordagi raqobatbardoshligi pasayib, eksport salohiyatini kengaytirish imkoniyatlari cheklanmoqda. Ushbu holatni bartaraf etish, hududiy ishlab chiqarish imkoniyatlarini samarali safarbar etish hamda qurilish materiallari sanoatida klaster tizimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali kutilayotgan iqtisodiy, tashkiliy va logistika samaradorligi ko'rsatkichlari yuqoridagi jadvalda ifodalangan .(6-jadval)

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, klasterli yondashuv masofani 20-35 km gacha qisqartirish imkonini beradi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun ishlab chiqarish va logistikani birlashtiruvchi integratsiyalashgan mexanizm zarur (3-rasm). Mazkur integratsion mexanizm xomashyo yetkazib beruvchilar bilan qayta ishlovchi quvvatlar o'rtasidagi transport-logistika zanjirini maqbullashtirish orqali mahsulot tannarxida yuk tashish xarajatlari ulushini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, masofaning qisqarishi Orolbo'yi mintaqasining iqlim sharoitida yonilg'i-energiya resurslarini tejash hamda atmosferaga chiqariladigan karbonat angidrid hajmini kamaytirish imkonini beradi. Natijada, klaster tarkibidagi qurilish materiallari korxonalarining hududiy demarkatsiyasi bartaraf etilib, tarmoqlararo sinergetik samaradorlik va ichki bozorda raqobat ustunligi ta'minlanadi.



3-rasm. Qurilish materiallari tarmog'ida hududiy konsentratsiyalashuvni

yumshatish va eksport salohiyatini oshirishning integratsiyalashgan klaster mexanizmi¹³.

Taklif etilayotgan strategiya quyidagi iqtisodiy mexanizmlar orqali ushbu muammoni hal etishga yo'naltirilgan:

1. *Hududiy nomarkazlashtirish va konsentratsiyani yumshatish.* Ishlab chiqarish quvvatlarini xom ashyo bazalariga (qum, shag'al, klinker) yaqin bo'lgan Amudaryo-Beruniy o'qi bo'ylab joylashtirish orqali mahsulot yetkazib berish masofasi 20–35 km gacha qisqartiriladi, bu esa logistika xarajatlarini 25–30% gacha tejash imkonini beradi.

2. *Integratsiyalashgan vertikal boshqaruv.* Sxemada keltirilgan "Logistika-savdo markazi" va "Klaster innovatsion markazi"ning tashkil etilishi, ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlarida (laboratoriya, sertifikatlash, marketing) qo'shilgan qiymatni hudud ichida saqlab qolish va mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishni ta'minlaydi.

3. *Eksport-ishlab chiqarish strategiyasini takomillashtirish.* Beruniy va Amudaryo tumanlarining geografik joylashuvidan foydalanib, ularni Qozog'iston, Turkmaniston va boshqa qo'shni bozorlarga chiquvchi "Eksport uzeli" sifatida shakllantirish taklif etiladi. Bu ichki bozorni barqaror ta'minlash bilan bir qatorda, tashqi savdo aylanmasini nomarkazlashtirish orqali hududiy eksport salohiyatini oshiradi.

Ushbu strategik yondashuvning amaliyotga joriy etilishi hududiy iqtisodiyotda multiplikativ samara berib, janubiy tumanlarda yangi "o'sish nuqtalari"ni yaratishga, ishlab chiqarish zanjiridagi transaksion xarajatlarni optimallashtirishga va hududlararo iqtisodiy disproporsiyani kamaytirishga xizmat qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoat tuzilmasida qurilish materiallari ishlab chiqarish eng yuqori energiya sig'imli tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli, tarmoqni innovatsion boshqarish – bu shunchaki yangi texnologiya o'rnatish emas, balki korxonaning butun ishlab chiqarish siklini ekologik standartlarga moslashtirish demakdir. "Yashil" transformatsiya sharoitida innovatsion boshqaruvning ustuvor yo'nalishlari quyidagi jadvalda ifodalangan (7-jadval).

7-jadval.

Qurilish materiallari sanoatida "yashil" transformatsiyaning asosiy drayverlari¹⁴


